ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 10

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
TerDU

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 10

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.10.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)*
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.10.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.10.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

JO‘RAYEVA BIBISH MUXSINOVNA,
TO‘XTAYEVA DILAFRUZ ASHUROVNA
Intensivlik va darajalanish munosabati 7

ТОЖИЕВ ОЛИМЖОН МУЙДИНОВИЧ
Ўзбек тилида равиш/сифат типидаги лексемаларда мазмуний синкретизм 12

UMURQULOV ZAFAR BEKPO‘LATOVICH
Til – hissiyotlar ifodalash vositasi 16

MARDIYEV BEGALI XUDOYQUL O‘G‘LI
Shaxs nomlarining lug‘aviy qatlamdagi o‘rni va tavsifiy belgilari 21

QODIROVA MUKADDAS TOG‘AYEVNA
Ingliz tili biznes diskursida dunyoning paremiologik manzarasi.....24

JO‘RAYEVA NASIBAXON GANIYEVNA
Tarixiy romanlar diskursida so‘zlarning
o‘zaro ma’no munosabatlari 29

RO‘ZIMATOVA DILNOZA MURODOVNA
Ijtimoiy maqomning sotsiolingvistik talqini 32

ZAYNUTDINOVA GULNOZA ANVARJON QIZI
Presedent birliklar va turg‘un birikmalarning
badiiy matndagi poetik ahamiyati (Shuhrat Orif ijodi misolida).....37

VASLIDDINOVA KAMOLA QODIRJON QIZI
Korpus platformalarining til tadqiqotidagi amaliy ahamiyati.....42

НАРМУРОДОВА ДИЛФУЗА АБДУХОЛИК КИЗИ
Типологические и генетические характеристики
терминосистемы civil engineering/строительство 46

YADIGAROVA SITORA BAXRAMOVNA
Phraseological units with clothing components in english language.....49

МУНДАРИЖА

ADABIYOTSHUNOSLIK

BOLTAYEVA GULCHEHRA SHOKIROVNA
Muxammaslarda ijtimoiy muammolar tasviri.....51

СМАМУТОВА ШИРИН АЗАТБАЕВНА
Қазіргі қазақ-қарақалпақ прозасындағы әдеби байланыстар.....54

АБДУЛЛАЕВ МУҲАММАД ҲАМЗАЕВИЧ
Убайдий рубоийнавис шоир.....57

ГАСЫМОВА СЕВИНДЖ АШУР КЫЗЫ
Традиции праздника новруз в Азербайджане.....60

NADIM MUHAMMAD HUMAYUN
Alisher Navoiying «Hayratul-abror» dostoniga ishlangan «Hammomdagi uchrashuv» miniatyurasiga sharh va Navoiy qurdirgan ba'zi inshootlar.....66

JUMAYEV ILHOM HAMROYEVICH
O'zg'urmish – komil zohid timsoli.....71

КЕНЖЕБАЕВА РОЗА САЙЛАУОВНА
Фариза оңғарсынова және қарақалпақ Ақын-жазушылары арасындағы достық әдеби байланыс.....78

ALIYEVA ORZIGUL
Abdulla Oripov va Shavkat Rahmonning olam hamda insonga munosabatidagi o'ziga xoslik.....81

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘ZG‘URMISH – KOMIL ZOHID TIMSOLI

Jumayev Ilhom Hamroyevich,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Adabiyot va tasavvuf ta'limotining o‘zaro ta'siri sharq xalqlari badiiy ijodida yangi mavzu va talqinlarni, mazmuniy evrilishni yuzaga keltirdi. Ta'kidlash kerakki, adabiyotda zohidlik g‘oyalarining keng yoyilishi bevosita tasavvuf ta'limotining zohidlik davri bilan bog‘lanadi. Adiblar mashhur zohidlarning g‘ayrioddiy qarashlaridan ilhomlangan yoxud mutasavvif ijodkorlar o‘z asarlarida zohidona qarashlarni keng targ‘ib etishgan. Adabiyotning asosiy maqsadi va vazifalari bilan uyg‘un bo‘lgan bunday qarashlar sekin-asta butun sharq adabiyoti, jumladan, turkiy adabiyotga ham yoyilgan. "Islomlashuv jarayonida tasavvufni butunlay axloqiy va amaliy asosdan iborat deb bilgan va bu an'ananing intellektual jihatini o‘z turmush tarziga singdirib yuborgan zohidlar – o‘tish davri bo‘lgani uchun – metafizik teranlikdan yiroq ko‘rinishi tabiiy edi. Davrning zohidona qarashlarini ifodalovchi asarlar to‘liq ko‘zdan kechirilib o‘zaro muqoyasa qilinsa, so‘fiylik "bilish tarzidan ko‘ra ko‘proq amaliy hayot tarzi" ekanligini ko‘rish mumkin… Hayot doimo bilimdan oldinda boradi, shunga ko‘ra, dastlab aqliy pozitsiyadan ko‘ra axloqiy munosabatning asos qilib olinishi mantiqlidir. Zohidlarni qadamba-qadam ta'qib etgan, hatto, ularni to‘ldiruvchi xulqqa ega bo‘lgan Ozg‘urmishning asl shaxsini anglash uchun zarur bo‘lgan ushbu unsurlar mintaqaning hanuz so‘fiyona tafakkurning dastlabki bosqichida (zohidlik davrida – I.J.) bo‘lganligini ko‘rsatadi"[1].

Yusuf Xos Hojib "Qutadg‘u bilig" dostonini XI asr o‘rtalarida yozib tamomlagan bo‘lsa-da, asarning eng muhim qismi bevosita zohidlik motivlari tasviriga bag‘ishlangan. Aytish mumkinki, "Islomning O‘rta Osiyoda mustahkamlangan bir davrida yozilgan bu asarda teizm ruhi ravshan ko‘rinib turadi"[2]. Avvalgi faslda qayd etganimizdek, tasavvuf tarixida zohidlik davri, asosan, VIII asr o‘rtalaridan IX asr o‘rtalarigacha davom etgani aytiladi. Neslihan Tosunning fikricha, "Yusuf Xos Hojib tasvirlagan bu zohid obrazi (O‘zg‘urmish – I.J.) jamiyatdan ajralib yashagan zohidlar davrining bir namunasi edi"[3]. Shu o‘rinda "Yusuf Xos Hojib o‘z asarida nima uchun zuhd mavzusiga buncha katta ahamiyat berdi" degan savolning paydo bo‘lishi tabiiy. Ushbu savolga turlicha javob berish mumkin. Islom dini Sharqiy Turkistondagi xalqlar orasida nisbatan kechroq – X asr o‘rtalarida yoyildi. "Aksar tarixchilar qoraxoniylarning islom dinini ommaviy qabul qilgan davri sifatida 960-yilni ko‘rsatishadi. Ikki yuz ming xonadon bilan musulmon bo‘lgan turklarning hanafiy mazhabiga kirishlari ortida moturidiy darveshlari turadi. Bolasog‘unda ildiz ota boshlagan hanafiy-moturidiy ta'limoti vaqt o‘tishi bilan keng tarqaladi. Mintaqada islomni yoygan moturidiya darveshlarining ta'sir doirasi so‘z san'ati vositasida yanada kengayadi"[4]. Professor N. Rahmonovning manbalarga tayanib qayd etishicha, "Qoraxoniylar sulolasida islomning qabul qilinishida Sotuq Bug‘roxonning (920 – 955; bug‘ro – tuya degan ma'noni bildirib, yag‘mo qabilasining totemi edi) xizmati katta. U yag‘mo qabilasining yabg‘usi edi. 932-yili u islomni qabul qiladi va ismini musulmoncha Abdulkarim deb o‘zgartiradi. Usmonli muarrixlaridan Munajjim boshining xabar berishicha, Sotuq islomni qabul qilgan birinchi turkiy edi. Otasining o‘limidan so‘ng Sotuq Koshg‘arda taxtga o‘tiradi va "xoqon" unvonini oladi, hukmdor sifatida o‘z huquqlarini ommaga e'lon qiladi"[5]. Shu tariqa qoraxoniylar sulolasida islom dini davlat miqyosida keng yoyila boshladi, biroq din va e'tiqod masalasi tez fursatda odamlar ong-u shuuriga o‘rnashib ketadigan hodisa emasligi, bu uchun muayyan muddat talab qilinishi tarixdan ma'lum. Qoraxoniylar sulolasi Sotuq Bug‘ro davrida (milodiy 920 – 955-yillar) musulmonga aylangan bo‘lsa, uning o‘gli Muso ibni Abdulkarim Bug‘roxon hukmronligi davrida xoqonlikni islomlashtirish bosh-

[1] Şeker F. M. Kutadgu Bilig Tasavvufî Açıdan Nasıl Okunabilir?. İslam Araştırmaları Dergisi (24), 2010. – S. 31. (-25 – 62 s.).

[2] Каримов Қ. "Қутадғу билиг" асари ҳақида // Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Тошкент: Фан, 1972. – Б. 26.

[3] Tosun N. Karahanli dönemi edebî eserlerinde islâmî unsurlar. – Konya: 2019. – S. 86.

[4] Önal Mehmet Naci. Kutadgu Bilig'de Yöneticilerle Din Adamı Odgurmuş Arasındaki İnanç Muhasebeleri // Uluslararası Kutadgu Bilig Kurultayı. – Ankara: Türk Dil Kurumu, 2020. – S. 923.

[5] Раҳмонов Н. Ўзбек адабиёти тарихи. ҳ. 2. – Алматы: ССК, 2021. – Б. 14.

landi[1]. Xullas, “Qutadg‘u bilig” Sotuq Bug‘roning avlodlari, ya’ni Tabg‘ach Ulug‘ Bug‘ro Qoraxon Abu Ali Hasan binni Arslonxon davrida (1070-yili) yozib tugatilgan. Agar qoroxoniylar sulolasida islomning rasman qabul qilinishi va “Qutadg‘u bilig” yozilgan yil orasida o‘tgan vaqt inobatga olinsa, bu bir dinning boshqa e’tiqoddagi el qalbiga o‘rnashishi uchun deyarli yetarli vaqt bo‘lgani, ammo o‘sha din bag‘rida shakllanib, ustuvorlik kasb etgan oqimlar, harakatlarning yoyilishi uchun yetarli fursat emasligi ma’lum bo‘ladi. Shu ma’noda, XI asrda islom olamida tasavvuf ta’limoti ancha keng quloch yozib, zohidlik davrini bosib o‘tib, allaqachon oriflik (oshiqlik) davriga, tariqat nazariyasi shakllanishi davriga[2] qadam qo‘yib ulgurganiga qaramay, Koshg‘ar va Bolaso‘g‘unda – “Qutadg‘u bilig” yozilgan davrda zohidlik davri g‘oyalarining endigina keng yoyila boshlaganini, badiiy asarlarda jiddiy talqin etila boshlaganini tasavvur qilish qiyin kechmaydi.

Ayrim mutaxassislar masalani tasavvuf ta’limoti ijtimoiy-siyosiy ahamiyati bilan ham bog‘lashadi. Masalan, Fotih Shakar yozadi: “Islomni Turkiston hayot tarziga sodiq turgan holda, turklar qabul qila oladigan shaklda taqdim eta olgan va musulmonlikka yangicha nigoh bilan qaray olgan Yusuf Xos Hojib nima uchun zohidni o‘z dunyoqarashining asosiy unsurlaridan biri sifatida tasvirlagan? Bir necha jihatdan tadqiq etilishi lozim bo‘lgan bu savolning javobi turklarning islomga e’tiqod qilishida tasavvufning roli bilan bevosita bog‘liqdir. Asrlar davomida islomlashuv jilovini o‘zida ushlab turgan tasavvuf islom yo‘l-yo‘riq ko‘rsatgan qadriyatlar bilan qadimgi davrdan qolgan, lekin hech qanday zarar keltirmaydigan jihatlar o‘rtasida muvozanatni o‘rnatish orqali islomlashishni amalga oshirishga imkon beradigan xususiyatga ega edi”[3]. Dostonda zuhd motivining quyuq tasvirlari shunday xulosalar chiqarishga ham imkon beradi.

Tarixiy shart-sharoit taqozosi va zuhdning mohiyati o‘rtasidagi muvofiqlik “Qutadg‘u bilig”da zohidlik g‘oyalarining keng tasvirlanishiga sabab bo‘lgan. Yusuf Xos Hojib o‘z asarini yozishga kirishgan bir davrda qoraxoniylar sulolasida siyosiy tarqoqlik, ichki ziddiyat yuzaga kelgan edi. Ya’ni “amakivachchalar – Musoning o‘g‘li Ali Arslon xon bilan Sulaymonning o‘g‘li Hasan ibn Bug‘roxon o‘rtasidagi ziddiyatlar kuchli xonliklarning Qoraxoniylarga ta’sir o‘tkazishiga yo‘l ochib berdi”[4]. Tarixiy-madaniy shart-sharoitning mazkur yo‘sini, tabiiyki, o‘sha davrning hukmdorlari, ziyoli kishilarini o‘ylatgan, muammolarga barham berishni taqozo qilgan. “Markazlashgan, yagona qo‘l ostiga birlashgan feodal davlati barpo etish, mustahkamlash, idora qilish, turli xon va beklar orasidagi nizolarga barham berish u davr hukmdorlarining ezgu orzusi edi. Ana shunday davlatni idora qilish usuli, siyosati, qonun-qoidalari, shuningdek, xalqning rasm-u odatlarini, axloq prinsiplarini o‘zida mujassamlashtirgan nizomnoma, qomus sifatida “Qutadg‘u bilig” maydonga keldi”[5].

Tarixiy sharoit taqozosi bilan yuzaga kelgan asarning asosiy masalalaridan biri sifatida zuhdning tasvirlanishi esa bevosita zuhdning mazmun-mohiyati bilan bog‘lanadi. Ya’ni XI asr o‘rtalariga kelib qoraxoniylar sulolasida ichki bo‘linish, siyosiy parokandalik kuchaydi. Odatda, bunday boshboshdoqliklar taxt uchun, hokimiyat uchun bo‘ladi. Taxt ilinjining zamirida esa dunyoga muhabbat, havas va nafsga qullik yotadi. Zuhd esa aynan dunyoga ko‘ngil bermaslik, unga bandi bo‘lmaslik, dunyo va uning ne’matlari o‘tkinchi ekani, o‘lim kelgach barchasidan voz kechilishi borasidagi haqiqatlarni o‘zida mujassam qilgan. Yusuf o‘z asari orqali qoraxoniylar davlatida birlik, ittifoqchilik va tinchlik o‘rnatish yo‘llarini targ‘ib etishni maqsad qilgan ekan, hukmdorlar, beklarga ular intilayotgan narsa – mol-dunyo va unga bog‘liq narsalar (jumladan, hokimiyat)ning mohiyatini ro‘y-rost ochib berishi, batafsil tushuntirishi, bu borada aniq xulosalarini bayon qilishi zarur edi. Ushbu maqsadga erishish uchun haqiqatligi muqarrar bo‘lgan, umum e’tirof etgan manba va mavzuga taynish zarur edi. Aytish mumkinki, bu borada eng maqsadga muvofiq yo‘l – diniy-tasavvufiy motiv bo‘lgan zuhdga tayanish edi. Aynan zohidlikning mazmunida dunyoni inkor etish, dunyo sevgisiga berilmaslik, buning oqibatidan ogohlikka chorlash muhim o‘rin tutardi. Yusuf Xos Hojib mazkur jihatni juda yaxshi anglagan va “Qutadg‘u bilig”da zuhd motivini batafsil tasvirlashga harakat qilgan.

Zuhd mavzusi nafaqat Yusufning ijodiy niyati bilan, ayni paytda, adabiyotning asosiy vazifasi – insonni ruhiy-ma’naviy jihatdan tarbiyalash, axloqini sayqallash bilan ham to‘la muvofiqlik kasb etgan. Adabiyot va zuhd motivi hamisha bir nuqtada – axloq masalasida o‘zaro kesishadi. Shu ma’noda aytish mumkinki, adabiyot mavjud ekan, uning asosiy maqsadi o‘zgarmas ekan badiiy asarlarda zuhd mavzusi va motivlari takror-takror tasvirlanaveradi.

“Qutadg‘u bilig”da zohidlik masalalariga katta o‘rin ajratilishining yana bir sababi individual dunyoqa-

[1] Раҳмонов Н. Ўзбек адабиёти тарихи. ҳ. 2. – Алматы: ССК, 2021. – Б. 14.

[2] Ислом тасаввуфи манбалари. Илмий мажмуа. Тузувчи Ҳ. Болтабоев. – Тошкент: O‘qituvchi, 2005. – Б. 13; 16.

[3] Şeker F. M. Kutadgu Bilig Tasavvufî Açıdan Nasıl Okunabilir?. İslam Araştırmaları Dergisi (24), 2010. – S. 26.

[4] Раҳмонов Н. Ўзбек адабиёти тарихи. ҳ. 2. – Алматы: ССК, 2021. – Б. 16.

[5] Каримов Қ. “Қутадғу билиг” асари ҳақида // Қутадғу билиг. Нашрга тайёрловчи Қ. Каримов. – Тошкент: Фан, 1972. – Б. 7.

rash va qalb ehtiyojlarini tasvirlash istagidir. Yusuf shaxs sifatida islomiy e'tiqod va dunyoqarash egasi bo'lib, tasavvufiy-ma'rifiy qarashlarni to'la yoqlaydi. Dunyoga ko'ngil bermaslikni, avvalo, uning o'zi xohlagan. Nafsni yengish, qalb pokligi, Alloh sevinchi uchun yashash kabi qarashlarni, birinchi navbatda, uning o'zi istagan. Chunki u Payg'ambar alayhissalomga ergashish insonni Haq sevgisiga musharraf qiladi degan qarashni chuqur idrok etgan. Insonning Allohga bo'lgan ishqi haqida Abdulhakim Shar'iy Jo'zjoniy quyidagi fikrlarni keltiradi: "Inson – so'fiy albatta Xudoni sevadi, ammo Xudo ham insonni sevadimi? Bu borada dalil bormi? Tasavvuf ahli quyidagi oyatga murojaat qiladilar: "Degil – (Ey Muhammad): "Agar Xudoni sevadigan bo'lsangiz, menga ergashinglar. Shunda Xudo ham sizni sevadi..." (3-sura 31-oyat)[1]. Agar ushbu oyat mazmuniga jiddiy e'tibor berilsa, "Qutadg'u bilig" ning muqaddima qismidagi na't mazmun va mohiyatini ham teranroq anglash, mushohada qilish imkoni yuzaga keladi. Muallif pozitsiyasi aniqroq ko'zga tashlanadigan muqaddima qismida ushbu fikrlar tasdig'ini ko'rish mumkin.

Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" muqaddimasidagi na'tda Muhammad alayhissalomni yuksak ehtirom bilan tilga oladi:

Сэвуг савчы ыдты бағырсақ иди,
Будунда талусы, кишидә кәди
Йула эрди халққа қаранқу түни,
Йаруқлуқы йадты, йарутты сэни
Оқытчы ул эрди байатдын сэңә,
Сэн өтрү көни йолқа кирдиң, тоңа (33 – 35)

Mazmuni:

Mehribon egam sevikli rasulni yubordi,
(U) xalq orasida sarasi (va) kishilar orasida yaxshisi edi.
Qorong'u tunlari (u) xalqqa mash'al edi,
(U) yorug'ligini tarqatib seni ro'shnolikka chiqardi.
U xudodan senga xabarchi edi,
Sen so'ng to'g'ri yo'lga kirding, ey bahodir.

Adib "савчы" – "payg'ambar" so'zi oldidan "сэвуг" so'zini keltirgan. Bu epitet o'rnida qo'llangan so'z bo'lib, sevikli, manzur, yoqimli kabi ma'nolarni bildiradi. Ya'ni Xudo (bu so'z oldidan ham "бағырсақ" so'zi keltirigan) insoniyat uchun, aniqrog'i musulmon ahli uchun mana shunday kishini "ыдты", ya'ni jo'natdi. Ikkinchi misrada ajratilgan bo'lak vazifasida kelayotgan "будунда талусы", "кишидә кәди", ya'ni "kishilarning sarasi" va "kishilarning eng yaxshisi" demakdir.

Undagi kamolot shu darajada ediki, adib buni xalq uchun qorong'u kechadagi "yula" – "mash'ala" ga o'xshatadi. Ayni mana shu vosita atrofni yoritadi. Demak, mash'ala o'zidan nur taratib, qorong'u yerlarni yoritgani kabi, payg'ambar (s.a.v) ham o'z ma'rifati bilan johil va hech narsani (islom borasida) bilmaydigan kishilarni yoritdi, ya'ni ularning qalblarini nurlantirdi, hidoyatga boshladi.

Bayat rahmatы erdi xalqы үzә,
Qылыnchы silig erdi qылqы tүz-ә
Tүzүn erdi alchaq qылыnchы silig,
Ovutlug' bag'ырsaq aqы кең әlig
Yag'ыz yer yashыl кәkdә erdi кәshүsh
Аңar berdi teңri ag'ырlыq өgүsh (41 – 43)

Mazmuni:

U xudoning xalq uzra yuborgan rahmati edi,
Fe'l-atvori muloyim, xulqi xush edi.
Muloyim, yumshoq, tabiatli, xushfeы (edi),
Andishali, mehribon, saxovatli, ochiqqo'l (edi).
Bo'z yerda, yashil osmonda aziz edi,
Tangri unga behisob hurmat ato qildi.

Uning borligi xalq uchun xudoning rahmati, marhamatidir. Zero, uning qiliqlari "silig" – "muloyim" va "qылqы" – fe'l-atvori "tүz" – to'g'ri edi. Shu tariqa fazilatlar sanog'i davom etadi. Endi uning haqiqatparastligi ("tүzүn"); yumshoq ko'ngilligi ("qылыnchы silig"); uyat-andisha egasiligi, mehribonligi, sahovati va ochiqqo'l ("кең әlig") ligi ta'riflanadi. Bunday fazilatlar egasi bo'lganligi uchun u yerda ham, ko'kda ham "кәshүsh" – "aziz" edi. Tangri uni munosib "ag'ырlыq", ya'ni hurmat va e'zozga munosib ko'rdi.

Көңүl badыt emdi anың yolыnga
Sevib sөzi tuttum bүtүb qavlыnga.
Ilaha кәdәzgil menің көңlүmi
Sevug savchы birlә qopur qopg'umы (45 – 46)

Mazmuni:

Endi men ko'ngilni uning yo'lga bog'ladim,
Qavliga ishonib, sevib so'z(lari)ga amal qildim.
Yo rabb, mening ko'nglimni o'zing ehtiyot tut,
(Qiyomatda) sevikli payombar bilan turg'iz.

Yusuf Xos Hojib ham Payg'ambarimiz ko'rsatgan hidoyat yo'lini o'z yo'li deb bilib unga ko'ngil bog'laganini va "sevib sөzi tuttum", ya'ni so'zlarini sevib amal qilishga ahd qilganini ta'kidlaydi.

Muxtasar aytganda, Yusufning o'zi shaxs sifatida islomiy-ma'rifiy ruhdagi kishi bo'lgan, qalb tasfiyasi va axloq go'zalligini yoqlagan, shuni targ'ib etishni istagan. Shu tufayli "Qutadg'u bilig"da zohidlikka oid g'oyalarni atroflicha badiiy talqin etgan.

Yusuf zuhd bilan bog'liq mulohazalarini badiiy tasvirlash uchun voqealar tizimiga O'zg'urmish obrazini olib kirgan. Bu boradagi barcha o'y-kechinmalarini O'zg'urmish atrofida muvofiqlashtirgan.

[1] Jo'zjoniy Abdulhakim Shar'iy. Tasavvuf va inson. – Toshkent: Adolat, 2001. – B. 18.

O‘zg‘urmish – zohid obrazi. U “shaxsiy axloqi tomondan ham, dunyoqarashi tomondan ham zohid tipining aynan o‘zidir”[1]. Muallifning ijodiy konsepsiyasi, asar qahramonlari tilidan aytilgan fikrlar, qolaversa, mavjud tadqiqotlar ham buni tasdiqlaydi. O‘zg‘urmish dostonda jami 9 o‘rinda “zohid” nomi bilan atalgan. Jumladan:

Salam qıldı elig eŋ ashnu kərub
‘alik berdi ***zahid*** *salamqa turub*
Əligləshti elig bu ***zahid*** *bilə*
Ayıtty elig yazlu sevnγ kγlə (4930 – 4931)

Ma’nosi:
Ko‘rib eng avval elig salom qildi,
Zohid [ya’ni O‘zg’urmish] turib salomga alik berdi.
Elig bu zohid bilan qo‘l olishdi,
Elig yozilib, sevinib, kulib (hol-ahvol) so‘radi.

O‘zg‘urmishning zohidligi borasida ortiqcha bahsga hojat yo‘q. Ammo “O‘zg‘urmish qanday zohid?” degan savolga, odatda, turlicha javoblar beriladi. Bu savolning javobini topish va ilmiy asoslash juda muhim. Aslida, O‘zg‘urmishning qanday zohid ekanligini to‘g‘ri belgilash qolgan barcha tahlil-u talqinlar to‘g‘ri bo‘lishiga zamin yaratadi. O‘zg‘urmish borasida turli-tuman fikrlarning vujudga kelishi, aslida, zuhdning mohiyati, zohidlikning martabalari va zohidning turlari haqidagi qarashlarning xilma-xilligi bilan bog‘liqdir. O‘zg‘urmish qanday obraz ekanligini anglash uchun, avvalo, uning dunyoqarashi va ruhiy olami tasviri bilan yaqindan tanishish kerak.

O‘zg‘urmish ismining ma’nosi “uyg‘ongan”[2] bo‘lib, atrofdagilarni g‘aflat uyqusidan uyg‘otish, ma’naviy hushyorlikka undash, dunyo moliga ko‘ngil qo‘ymaslikka chorlash kabi mazmunni o‘zida mujassam qilgan. O‘zg‘urmish, aslida, islom olamida yuz bergan voqealarni, dunyoparastlikka qarshi harakatning g‘oyasini o‘zida mujassam etgan obrazdir. Shu ma’noda uni turkiy yozma adabiyotdagi islomiy ruh tashuvchi ilk obraz sifatida talqin qilish mumkin. Shu bilan birga bu obrazda dunyoga berilmaslik, nafs va hoyu-havasni yengish, qanoat va sabrni qalb qo‘rida maslak deb bilgan shaxslar qiyofasini aks ettirish ko‘zda tutilgan.

O‘zg‘urmish “Qutadg‘u bilig” asarining o‘ziga xos qahramonlaridan biri hisoblanadi. O‘zg‘urmish haqida A.Dilachar[3], S.Chig‘atoy[4], Q.Karimov[5], N.Rahmon[6] kabi bir qator adabiyotshunoslar tomonidan ilmiy tadqiqotlar nashr etilgan va ularda muhim fikrlar bildirilgan.

O‘zg‘urmish bilan bog‘liq tadqiqotlarda ba’zan bu obrazning mohiyatiga butunlay zid qarashlar ham ilgari surilgan. Shulardan biri sifatida S. Chig‘atoyni keltirishimiz mumkin. Olim O‘zg‘urmishni budda rohibi timsoli bo‘lishi mumkin degan taxminni ilgari suradi[7]. Saodat Chig‘atoy o‘z mulohazalarini islom dinida uzlatga chekinish tushunchasining yo‘qligi bilan isbotlashga harakat qiladi. Chindan ham islom ta’limotida uzlatga chorlash, o‘zini odamlardan butkul ajratib butun umrini toat-ibodat bilan shug‘ullanishga chorlov yo‘q. Din yengillikdir. Ammo “uzoq muddatli yolg‘izlikni bevosita buddizimga xos deb o‘ylash G‘azzoliyning taxminan o‘n yil davom etgan tanholigi va Ahmad Yassaviyning 63 yoshdan keyin butunlay yakkalanishini noto‘g‘ri talqin qilishga olib keladi” [8].

“Shu o‘rinda “Qutadg‘u bilig”da uchraydigan ba’zi fikrlarning jahon falsafasi bilan mushtarak tomonlari bo‘lishi tabiiy. Chunki “Qutadg‘u bilig” didaktik asar sifatida insoniyatning eng qadimiy mavzulari: ilm-fan, axloq va inson falsafasi haqida yozilgan. Bu jihatdan u o‘zidan oldin yaratilgan manbalar ta’sirida bo‘lgan va o‘zidan keyin yozilgan asarlarga ta’sir qilgan bo‘lishi mumkin. Biroq yolg‘izlik va zohidlik g‘oyasini buddizm bilan bog‘lab tushuntirish Yusuf Xos Hojib aytganlariga hech qanaqasiga mos kelmaydi”[9]. Aksincha, Nejat Do‘g‘an ta’kidlaganidek, bularning barchasi to‘g‘ri ekanligini qabul qilsak ham, bu tezislar bizni “Qutadg‘u Bilig” va Yusuf aytganlari haqida uzoqqa olib bormasligi aniq[10]. Agar O‘zg‘urmish buddist sifatida qabul qilinsa, buddistlar bilan musulmonlar o‘rtasida jiddiy to‘qnashuvlar davom etayotgan bir paytda tarixda islom hukmdori sifatida tanilgan Tabg‘ach Qoraxoniyning “Qutadg‘u Bilig” ni yoqtirishi va Yusufga “Xos Hojib” unvonini berishi mantiqsiz bo‘lar edi”[11].

“Bir tomondan, “Qutadg‘u bilig”dan taxminan bir asr avval “Oltun Yoruq” asarining uyg‘ur tiliga tarjima qilingani va 10-asrda xitoylarning uyg‘ur jamoalarida buddizmni yoyish yo‘lidagi faoliyatlarini davom ettirganliklari yuqoridagi parchalarning dalili sifatida ko‘riladi. Boshqa tomondan, qoraxoniylar hukmdori

[1] Durmaz Gülay. Kutadgu Bilig’de Zahid // Sosyal Bilimler Dergisi. Yıl: 7, Sayı: 11, 2006/2. – S. 208.

[2] Древнетюркский словарь. – Л.: Наука, 1969. – С. 362.

[3] Dilachar A. Kutadgu Bilig incelemesi, - Ankara, Turk Dil Kurumi yayinlari, 1972.

[4] Cağatay S. (1970), “Kutadgu Bilig‘de Ögdülmiş” Türk Kültürü, 98.

[5] Каримов Қ. Илк бадиий достон. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 223.

[6] Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha). O’quv qo‘llanma. - Тошкент: Sano-standart, 2017. – B. 180-183.

[7] Cağatay S. (1970), “Kutadgu Bilig‘de Ögdülmiş” Türk Kültürü, 98: 104−105 s.

[8] D. Hamroyeva “Kutadgu bilig” de uzlet.

[9] Dilaçar A. (1995), Kutadgu Bilig Incelemesi. – Ankara: Türk Dil Kurumu, 3.Basim. 152−153 s.

[10] Nejat D. (2002), “Kutadgu Biligin Devlet Felsefesi”. Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi. Sayı 12, 130-s.

[11] D. Hamroyeva “Kutadgu bilig” de uzlet. – Ankara: Türk Dil Kurumu, 3.Basim. 152−153 s.

Abdulkarim Satuq Bug‘roxonning islom dinini qabul qilgani va keyinchalik qoraxoniylar 990-yillarda o‘sha davrda to‘liq islomga aylangan Movarounnaxrni Somoniylar qo‘lidan tortib olingani, Buxoroning esa ikkinchi poytaxt sifatida tanlanganini hisobga olsak, Buxoro va Samarqandning tevarak-atrofdagi mamlakatlarga ta’sirini e’tiborda tutish joiz ko‘rinadi. “Qutadg‘u bilig” dagi chet el falsafalarining ta’siri haqidagi ba’zi fikrlarni inkor etib bo‘lmaydi. Boshqacha aytganda, sivilizatsiyalar chorrahasida joylashgan har bir davlat va millat o‘z qadriyatlari va e’tiqodlarini yangicha fikrlarga muvofiq himoya qilish orqali saqlab qolishlari mumkin”[1].

O‘zg‘urmish yolg‘iz yashaydi va tog‘dagi g‘orni manzil qilgan. Ammo u yerda o‘zini yolg‘iz his qilmaydi, chunki doimo Allohning yodi bilan mashg‘ul va Allohga toat-ibodat qiladi, Ungagina tayanadi. O‘zg‘urmish bu haqda aytadi:

Өzүm qalsa yalңuz idim yadы tab
Өzүm sөzlөgүkө idim atы tab (4689)

Mazmuni:

O‘zim yolg‘iz qolganda, egamning yodi kifoya,
O‘zimning so‘zlashim uchun egamning oti kifoya.

Uzlatda o‘zi yolg‘iz qolganida har nafasida Allohning yodi bilan yashash mo‘minning asosiy tilagi. Buning alomati tilida Alloh nomini zikr etishdan charchamaslikdir.

Uning maqsadi o‘zida mavjud bo‘lgan kamchiliklarni xilvatda tuzatish va Alloh roziligiga erishmoqdir. Agar u dunyo ishlariga aralashsa, dunyoning o‘tkinchi tashvishlari bilan bo‘lib oxirat tadorigini unutadi. Uning zohidlikni qasd qilgani quyidagi hadis bilan hamohangdek tuyuladi: “Rasulullo sallolohu alayhi va sallam aytdilar: “Shunday davrlar kelgaydirki, musulmon o‘z dinini fitnalardan asramoq maqsadida tog‘-u toshlarga qo‘y haydab chiqib ketishni afzal ko‘rsa, ajab ermas”[2].

Islom dinida uzlatga chekinish, rohiblik qoralangan bo‘lsa-da, O‘zg‘urmishning uzlatga chekinishi asarda yetarlicha asoslangan. U, avvalo, o‘zidagi gunoh va nuqsonlarga davo izlab uzlatni ma’qul ko‘radi. G‘orda tanholikda “Idim yadы” (Alloh yodi)ni qalbiga jo qilib, uzluksiz ro‘za tutib, zikr tushib, vaqtini Alloh buyurgan amallarni qilish va Yaratganning roziliga erishish bilan o‘tkazadi.

Idim yadы esh tab sevingү sevinch,
Anың yarlыg’ы tab avыng’u avыnch. (4658)
Sevүg bolmasa tab idim sevmishi,
Yag’ым yek turur өz yag’ылamыshы. (4659)

Mazmuni:

Egamning yodi (menga) esh, yetarli sevinadigan sevinch,
Uning yorlig‘i yetarli ovinadigan ovinch.
Sevuvchi bo‘lmasa, egamning sevishi kifoya,
O‘zim yovlashgan yovim shaytondir.

Ushbu misralardan uning umumiy maqsadi oydinlashadi. Tilida doimo Allohning nomi takrorlanadi. Barcha umidi yagona Allohdan. U o‘zgalardan marhamat kutmaydi. Faqat Alloh marhamati va sevinchiga erishishnigina maqsad qilgan. U shayton va unga bog‘liq bo‘lgan nafs, dunyo kabilarni o‘ziga dushman deb biladi.

Tonum qoy yuңi tab, yegүm arpa ash.
Tүgөl boldы dunya meңө, ey qadash! (4661)

Mazmuni:

Kiyimim qo‘y yungi, (shu) bas, ozuqim arpa osh,
(Shular bilan) dunyo menga yetarli bo‘ldi, ey qarindosh.

Uning nafs atalmish dushmanni butunlay mavh etganligi hayot tarzida ham aks etadi. Unga kiyish uchun qo‘y yungidan kiyim, yeyish uchun esa arpa osh kifoya. U shular bilangina qanoat qiladi. Uning yagona maqsadi Allohnigina sevish, yaratgan Alloh vasliga erishish. U o‘z Yaratuvchisini izlab tinmaydi. Uning nishonalarini topgandek, ammo o‘zini ko‘rish yo‘q, chunki Alloh dunyoning har zarrasida o‘z mohiyatini aks ettirgan. Uning visoliga erishishning yagona yo‘li bu – muntazam toat-ibodat qilish, uning roziligiga erishmoq uchun tinmay harakat qilishdir. Bular zohid O‘zg‘urmishning maqsad-muddaolari. U shu maqsadlarda odamlardan uzoqlashdi, o‘zini uzlatga tortdi. Ammo Allohning roziligiga qay yo‘l bilan erishmoq mumkin? Bu yo‘l zohid uchun tinimsiz toat-ibodat va riyozat yo‘lidir.

O‘zg‘urmish obrazining tabiati, individual xususiyatlariga oid badiiy talqinlardan kelib chiqib endi uni asl zohidlarning maqomi, darajalari bilan baholab ko‘rish mumkin. Aziziddin Nasafiy ayatadi: “Bilgilki, zohidlarning bir necha darajalari bor va ularning har biri mana shu martabalarga mansub bo‘ladi: (zohidlikdagi) birinchi martaba shuki, bunda oxirat azobidan emin bo‘lguncha va do‘zaxning turli uqubatlaridan xalos bo‘lguncha zohid bo‘ladi. Bu *zuhdi xoyifon* – ya’ni qo‘rquvchilar zuhdidir. Ikkinchi martaba shuki, oxiratning savobi va jannatning xilma-xil ne’matlari uchun zohid bo‘ladi. Bu *zuhdi rojiyon* – ya’ni umidvorlar zuhdidir. Uchinchi martaba shuki, bunda zohidning zuhdi na do‘zax xavfi tufayli, na jannat umidida bo‘ladi, faqat Allohning unsi, do‘stligi uchun bo‘ladi. Uning dilini Alloh taoloning do‘stligi shunday

[1] D. Hamroyeva “Kutadgu bilig” de uzlet. – Ankara: Türk Dil Kurumu, 3.Basim. 152−153 s.

[2] Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis.1- juz. – Toshkent, 1991-1996. – B.8.

chulg‘ab oladiki, boshqa biror narsaga mashg‘ul bo‘lmaydi”[1]. Demak, zuhd yoxud zohidlarning martabasi uch xil bo‘ladi:

1) zuhdi xoyifon – do‘zax azobidan qo‘rquvchilar zuhdi;

2) zuhdi rojiyon – jannat ne’matlaridan umidvor bo‘lganlar zuhdi;

3) zuhdi do‘ston – Allohga do‘st tutingan, dilidan xavf-u umidni chiqarganlar zuhdi.

Agar Yusuf Xos Hojibning O‘zg‘urmish obraziga oid barcha talqinlari, munosabatlari, O‘zg‘urmish obrazining ichki dunyosi, ma’rifiy maqomi, istak va intilishlari umuman olinsa, dostonda O‘zg‘urmish – **komil zohid** obrazi sifatida tasvirlangani ma’lum bo‘ladi. O‘zg‘urmishda dastlabki ikki darajaga xos xislatlar mavjud bo‘lsa-da, uning martabasi Nasafiy tasnifidagi uchinchi darajaga to‘g‘ri keladi. Zero, dostonda O‘zg‘urmish bot-bot maqsadi Alloh sevinchi ekani, Haq yodi uni butunlay band qilgani, Alloh diydoriga yetishdan bo‘lak maqsadi yo‘qligini ta’kidlaydi (masalan: 4657 – 4660-baytlarda). Ayni fazilati bilan u oriflarni ham eslatib yuboradi. Qisqasi, asardagi O‘zg‘urmish bilan bog‘liq tasvirlar va talqinlar bir maxrajga keltirilsa, O‘zg‘urmish – **komil zohid** yoxud **zohid so‘fiy** obrazi ekanligi ma’lum bo‘ladi.

Shu o‘rinda qayd etish lozimki, O‘zg‘urmish haqiqiy va komil zohid obrazi, biroq uni orif deb atashga yetarlicha asoslar mavjud emas. Chunki dostonda O‘zg‘urmishning hayot tarzi, xulq-atvori, dunyoni idrok etishi, hatto, kiyim-boshi ham zohidlik bilan to‘la muvofiq. Garchi u ba’zan orifona fikrlar bildirsa ham yoki dunyoni orifona idrok etsa ham zohidlik darajasidan yuqori ko‘tarila olmagan va orif darajasiga yeta olmagan deyish mumkin. Aziziddin Nasafiy ayni shu jihatni ta’kidlab yozadi: “Kimki oxirat xayri uchun tarki dunyo qilsa zohid hisoblanadi, ammo bu zuhd ma’rifat ahli qoshida zaif sanaladi, chunki dunyo va oxirat oriflar nazdida haqir-u arzimasdir. Ular do‘zaxning turfa azoblaridan qo‘rqmaydilar va jannatning anvoyi ne’matlaridan umid qilmaydilar. Xudodan qo‘rqadilar, Xudodan umid qiladilar va Xudodan so‘raydilar”[2]. Har holda, orif zohidona hayot tarzida yashamaydi, do‘zax-u jannat, oxirat savol-javobi haqida O‘zg‘urmishdek qayg‘urmaydi. Ayni shu nuqtalarda zohid va orif o‘rtasida ayirmalar ko‘zga tashlanadi. Tasavvuf shayxlari ham bu masalani yaxshi farqlab berishgan. Jumladan, Zunun Misriy aytadi: “Zohidlar oxirat podsholari, oriflar esa zohidlarning podshohlaridir”[3]. Shu ma’noda O‘zg‘urmishni haqiqiy zohid sifatida, zohidlarning eng yuqori martabasiga mansub zohid sifatida talqin qilish ko‘proq maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Rezyume. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida zuhdning haqiqati, shartlari badiiy aks ettirilgan. Adibning zuhd mohiyatiga oid qarashlari, O‘zg‘urmish obraziga oid tasvirlari ham zuhdning ma’nolari bayon qilingan oyatlar, hadislarga, Imom G‘azzoliy singari ulug‘ shayxlar qayd etgan zuhd haqiqatlariga to‘la muvofiq keladi. Yusuf Xos Hojib zuhd masalasining mazmunini yoritishda, zohid obrazi (O‘zg‘urmish)ni yaratishda asl islomiy manbalarga tayangan.

Zuhd motivi va zohidlik g‘oyalari ta’sirida turkiy adabiyotda *zuhdiyot* namunalari yoki *zuhd adabiyoti* paydo bo‘lgan. Zuhd mavzusi va uning motivlari adabiyotimiz tarixida alohida o‘rin tutadi. U butun turkiy adabiyot rivojiga, jumladan, o‘zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatgan.

Mumtoz adabiyotimiz tarixidagi ilk badiiy asar sifatida “Qutadg‘u bilig” qayd etiladi. Ushbu dostonning kattagina qismi (salkam yarimi) aynan zuhd mavzusi tasviriga bag‘ishlangan.

O‘zg‘urmish obrazi zuhd sifatini mukammal egallagan, zohidlik maqomiga ko‘tarilgan va zohidda bo‘lishi kerak bo‘lgan barcha fazilatlar egasi. O‘zg‘urmish borasida turli-tuman fikrlarning vujudga kelishi, aslida, zuhdning mohiyati, zohidlikning martabalari va zohidning turlari haqidagi qarashlarning xilma-xilligi bilan bog‘liqdir. Yusuf Xos Hojibning O‘zg‘urmish obraziga oid barcha talqinlari, munosabatlari, O‘zg‘urmish obrazining ichki dunyosi, ma’rifiy maqomi, istak va intilishlari umuman olinsa, dostonda O‘zg‘urmish – *komil zohid* obrazi sifatida tasvirlangani ma’lum bo‘ladi.

Resume. Yusuf Khos Hajib’s work «Kutadgu Bilig» artistically reflects the reality and conditions of asceticism. The author’s views on the essence of asceticism, his images of the image of Ozgurmish are fully consistent with the verses and hadiths that describe the meaning of asceticism, as well as the truths of asceticism recorded by great sheikhs such as Imam Ghazali. Yusuf Khos Hajib relied on the original Islamic sources in elucidating the content of the ascetic issue and creating the image of the ascetic (Ozgurmish).

Under the influence of the motif of asceticism and the ideas of asceticism, examples of asceticism or ascetic literature appeared in Turkish literature. The theme of asceticism and its motives occupy a special

[1] Guharin Sayyid Sodiq. Sharhi istilohoti tasavvuf. J. 6. – Tehron: Zavvor, 1380 (h.). – S. 184 – 185.

[2] Guharin Sayyid Sodiq. Sharhi istilohoti tasavvuf. J. 6. – Tehron: Zavvor, 1380 (h.). – S. 184 – 185.

[3] Фаридуддин Аттор. Тазкират ул-авлиё. Нашрга тайёрловчи А. Мадримов. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2021. – Б. 156.

place in the history of our literature. He had a significant impact on the development of the entire Turkish literature, including the development of Uzbek classic literature.

«Kutadgu Bilig» is noted as the first literary work in the history of our classical literature. A large part of this epic (almost half) is dedicated to the depiction of asceticism.

The image of Ozgurmish has perfectly acquired the quality of asceticism, has risen to the status of an ascetic and has all the qualities that should be in an ascetic. The emergence of different opinions about conversion is actually related to the diversity of views about the essence of asceticism, the ranks of asceticism, and the types of asceticism. It is known that Yusuf Khos Hajib's interpretations, relationships, inner world, educational status, desires and aspirations of Ozgurmish are depicted in the saga as a perfect ascetic.

Резюме. Произведение Юсуфа Хоса Хаджиба «Кутадгу Билиг» художественно отражает реальность и условия аскетизма. Взгляды автора на сущность аскетизма, его изображения образа Озгурмиша полностью соответствуют аятам и хадисам, описывающим смысл аскетизма, а также истинам аскетизма, записанным великими шейхами, такими как Имам Газали. Юсуф Хос Хаджиб при освещении содержания аскетического вопроса и создании образа подвижника (Озгурмиша) опирался на оригинальные исламские источники.

Под влиянием мотива аскетизма и идей аскетизма в турецкой литературе появились примеры аскетизма или аскетической литературы. Тема аскетизма и его мотивы занимают особое место в истории нашей литературы. Он оказал значительное влияние на развитие всей турецкой литературы, в том числе на развитие узбекской классической литературы.

«Кутадгу Билиг» отмечено как первое литературное произведение в истории нашей классической литературы. Большая часть этой эпопеи (почти половина) посвящена изображению подвижничества.

Образ Озгурмиша прекрасно приобрел качества аскетизма, поднялся до статуса подвижника и обладает всеми качествами, которые должны быть у подвижника. Возникновение различных мнений об обращении связано на самом деле с разнообразием взглядов на сущность подвижничества, чины подвижничества и виды подвижничества. Известно, что в саге изображены трактовки Юсуфа Хоса Хаджиба, его внутренний мир, образовательный статус, желания и стремления Озгурмиша как совершенного аскета.